

TISH TARKIBIDAGI PERIODONT TO‘QIMASI VA UNING KASALLIKLARI

PERIODONTAL TISSUE IN THE TOOTH STRUCTURE AND ITS DISEASES

Orifova Farziyo O‘tkirbrk qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Stomatologiya yo‘nalishi 105-guruh talabasi

+998770780781 E-mail: farzonaaripovva@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada periodont tizimining anatomik va fiziologik xususiyatlari hamda uning asosiy tarkibiy qismlari haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Periodont tish ildizi va suyak alveolasi oralig‘ida joylashgan bo‘lib, tishlarni jag‘ suyaklariga bog‘lovchi to‘qimalar majmuasi sifatida tavsiflanadi. Unda kollagen tolalarining roli va funksional guruhlariga ajratilishi yoritilgan. Maqolada periodont kasalliklari, jumladan, gingivit va periodontitning kelib chiqish sabablari klinik belgilari hamda stomatologik tashxis qo‘yish usullari bayon etilgan. Periodontitning infeksiyon, travmatik va medikamentoz turlari, ularning etiologiyasi va rivojlanish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, kasallikning kechish shakllari, jumladan, o‘tkir va surunkali periodontit, ularning zo‘rayish bosqichalari va klassifikatsiyasi haqida ham ma‘lumot berilgan. Maqola periodont kasalliklarining patogenezi, immunologik reaksiyalari va klinik oqibatlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Periodont, kollagen tolalar, tish alveolasi, gingivit, periodontit, infeksiyon periodontit, travmatik periodontit, medikamentoz periodontit, surunkali periodontit, tish-milk cho‘ntagi.

Annotation: This article provides detailed information on the anatomical and physiological characteristics of the periodontal system, as well as its main components. The periodontium is located between the tooth root and the alveolar bone, serving as a connective tissue complex that attaches the teeth to the jawbones. It elucidates the role of collagen fibers and their classification into functional groups. The article also discusses periodontal diseases, specifically the etiologies, clinical signs and diagnostic methods for gingivitis and periodontitis. It analyzes the infectious, traumatic, and iatrogenic types of periodontitis, including their etiologies and developmental mechanisms, in addition, information is provided on the clinical courses of the disease, namely, acute and chronic periodontitis, their exacerbation stages, and classification. This article serves as a valuable recourse for specialists dealing with the pathogenesis and clinical consequences of periodontal diseases.

Keywords: Periodontium, collagen fibers, dental alveolus, gingivitis, periodontitis, infectious periodontitis, traumatic periodontitis, medicament-induced periodontitis, chronic periodontitis, periodontal pocket

Periodont suyak alveolasi va tish ildizi oralig’ida joylashgan biriktiruvchi to’qimadan iborat tuzilma. Periodont asosan Sharpey tolalari deb nomlanuvchi va sement hamda suyak chuqurchalariga tutashib ketgan kollagen tolalardan iborat. Bu tolalar bir qancha guruhlarini tashkil qiladi. Kollagen tolalarning milk gruppasi periodontni milkning xususiy qavatini bilan bog’laydi. Tolalarning tishlararo gruppasi bir tish sementidan ikkinchi tish sementi tomon yo’nalgan bo’ladi. Shu ikki guruh kollagen tolalari birgalikda tishning aylana bog’lamini hosil qiladi.

Tish alveolasi bilan bog’langan periodont tolalari 4 ta tutamni hosil qiladi:

1. Suyak alveolasidan sementga ketgan tutamlar
2. Tish uzunasi bo’ylab tikka yo’nalgan tutamlar
3. Suyakdan boshlanib tish uchi tomon yo’nalgan va sementga botib kiruvchi qiyshiq tutamlar.
4. Til ildizining uchidan atrof suyakka yo’nalgan cho’qqi tutamlar.

Periodont tishning bog’lovchi apparati hisoblanib, chaynash mobaynida bosimning bir me’yorda taqsimlanishini ta’minlaydi. Periodont yuqori va pastki jag’lar suyaklarida tishlarni ushlab turishga javobgar to’qimalarni o’z ichiga oladi. Uning tarkibiga sement, periodont bog’lami, alveolyar suyak va milk kiradi.

Periodont kasalliklarga gingivit va periodontit kiradi. Gingivit milklar yuza qatlamlarining, periodontit esa chuqur qatlamlarning yallig’lanishidir. Uning sababi ko’p hollarda og’iz bo’shlig’i gigienasi qoidalariga amal qilmaslik, bakterial infeksiya. Surunkali periodontit periodontal bog’lamini bo’shashtiradi va bu tishlarning qimirlashiga olib keladi. Tish va milk orasidagi masofaning chuqurlashishi, klinik stomatologik tekshiruvlarida periodontit kasalligining muhim tashxis belgilaridan biri hisoblanadi.

Petiologiyasi turlicha: ildiz kanali, apikal teshik, limfa qon tomirlari orqali va butunligi buzilgan tish-milk cho’ntagi orqali bo’ladi. Periodontit gematogen va limfogen yo’llari orqali intakt tishlarda, ayniqsa, o’tkir yuqumli kasalliklarda yoki septik holatlarda ham rivojlanishi mumkin. Etiologik omillar turiga ko’ra infeksiyon, travmatik va medikamentoz periodontitlar hisoblanadi. Infeksiyon periodontit: infeksiyon tabiatli sababchilar streptokokklarning 62% nogemolitik shtammlari, ko’kimtir streptokokklari 26%, gemolitik streptokokklari 12% tashkil qiladi. Grammanfiy mikroorganizmlar parchalanib endotoksinlar hosil bo’ladi va periodont immunitet tizimini jarohatlaydi, ya’ni ular faol moddalar ishlab chiqarib periodont qon tomirlari o’tkazuvchanligini oshiradi va antigen ta’sir ko’rsatadilar. Himoya reaksiyasi kuchli bo’lishi yallig’lanish ildiz cho’qqisida saqlanib surunkali kechadi, himoya kuchsiz bo’lsa, o’tkir diffuz yallig’lanish ko’rinishida kechadi. Infeksiyon periodontga ontradental (tish bo’shlig’i orqali va ekstradental atrof to’qimalar yallig’lanishi-osteomielit, ostit, gaymorit) yo’l bilan o’tadi.

Travmatik periodontit: Bir marotaba bo’lgan kuchli jarohat (lat yeyish, zarba, tishga qattiq narsa tegib ketishi) ta’siridan yoki bir necha bor qaytariladigan qayta mikrotravmalar (yuqori qo’yilgan plomba, to’g’ri prikus, musiqiy asbob va mund-shtuk dastalari, zararli odatlar- ipni tishlash, tishga qalam yoki ruchka urish) natijasida rivojlanadi. O’tkir shikastlarda o’tkir periodontit avjiga chiqqan yallig’lanish jarayoni bilan, surunkali

jarohatda periodontdagi o‘zgarishlar asta-sekin rivojlanib boradi. Periodontning himoya mexanizmlari bo‘shashgan holda doimiy shikastlanish alveolani kompakt plastinkasi va ildiz cho‘qqi sohasini lakunar rezorbsiyasi bilan kechib surunkali periodontitlarga olib keladi.

Medikamentoz periodontit. Medikamentoz periodontit asosan pulpitni davolash paytida qo‘llaniladigan kuchli kimyoviy yoki dori vositalarni (margumush pasta, trikrezon, formalin, fenol va boshqalar) periodontga ildiz kanali orqali ta’siridan plomba ashyosini (fosfat-sement, paratsin-shtrift, rezortsin-formalin pasta) ildiz uchidan haddan tashqari chiqib ketishi natijasida, shuningdek ayrim dori ashyolaridan (antibiotik, evgenol) allergik hollarda mahalliy immunologik reaksiya natijasida periodontit rivojlanadi.

Periodont reaksiyasi ildiz kanalida o‘tadigan antigenlar ta’sirida antitelo-tobelik (immunokompleks va IgE reaksiya) va hujayra tabiatli jarayonlar (sekin sezuvchi yuqori sezuvchan reaksiyalar) tavsiflidir.

Cho‘qqili periodontitlarni tasnifi (MmCI, 1997-y)

1. O‘tkir cho‘qqili periodontit: a) intoksikatsiya fazasi, b) ekssudatsiya fazasi: serzli yiringli.

2. Surunkali cho‘qqili periodontit: a) surunkali fibroz periodontit, b) surunkali granulyatsiyalashgan periodontit, c) surunkali granulematoz periodontit.

3. Zo‘rayish bosqichidagi surunkali periodontit. a) zo‘rayish bosqichida surunkali fibroz periodontit, b) zo‘rayish bosqichidagi surunkali granulematoz periodontit.

I.G.Lukomskiy tasnifi.

1. O‘tkir periodontitlar; a) kelib chiqish sabablariga ko‘ra- infeksiyon periodontit, travmatik periodontit, medikamentoz periodontit.

b) patologik jarayonni joylashishiga ko‘ra: o‘tkir cho‘qqili periodontit, o‘tkir marginal periodontit, o‘tkir umumiy (total)

c) ekssudat turiga ko‘ra: o‘tkir zardobli, o‘tkir yiringli

2. Surunkali periodontitlar: surunkali fibroz, surunkali granulyatsiyalashgan surunkali granulematoz

3. Qaytalangan (zo‘raygan) surunkali periodontit.

XULOSA

Ushbu maqolada periodont tiziming tuzilishi, uning asosiy funksiyalari hamda kasalliklari batafsil yoritilgan. Periodont tishlarni jag‘ suyaklariga bog‘lab turuvchi muhim qism bo‘lib, uning tarkibida kollagen tolalar, suyak alveolasi, sement va milk mavjud. Periodontitning eng keng tarqalgan kasalliklari gingivit va periodontit bo‘lib, ular yallig‘lanish jarayonlari natijasida yuzaga keladi. Kasallikning asosiy sabablari og‘iz gigienasiga rioya qilmaslik, bakterial infeksiya va turli travmatik va medikamentoz shakllarga ajratilib, har biri o‘ziga xos patogenez va klinik belgilar bilan tavsiflanadi.

Kasallikning oldini olish va samarali davolash uchun erta tashxis qo‘yish hamda o‘g‘iz gigienasi qoidalariga rioya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Periodont kasalliklari kechikkan holatlarda tishlarning qimirlashi va yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Shu

sababli, profilaktika choralarini ko’rish va stomatologik tekshiruvlarni muntazam o’tkazish zarur.

Tavsiyalar

1. Muntazam stomatologik ko’riklar- har 6 oyda bir marta tish shifokoriga tashrif buyurish va periodontit va gingivitni erta aniqlashga yordam beradi.
2. Og’iz gigienasiga rioya qilish- tishlarni kunig kamida 2 marta to’g’ri yuvish ip va antiseptik suyuqliklardan foydalanish yallig’lanish jarayonlarini oldini oladi.
3. Risk omillarini kamaytirish- chekish, qandli diabet, noto’g’ri ovqatlanish kabi omillar periodont kasalliklarini kuchaytirishi mumkin, shuning uchun sog’lom turmush tarzini shakllantirish muhimdir.
4. Antibakterial terapiya- infeksiyon periodontit holatlarida stomatologiya tavsiyasiga ko’ra antibiotiklar qo’llash zarur.
5. Fizioterapevtik muolajalar- ultratovush terapiyasi, lazer muolajalari va boshqa zamonaviy usullar yallig’lanish jarayonlarini kamaytiradi va regeneratsiyani tezlashtiradi.
6. Jarrohlik aralashuvlar- og’ir holatlarda kuretaj, gingivektomiya va regenerative muolajalar (masalan, suyak grefti) qo’llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov, S. R. (2020). Periodont To’qimasining Strukturaviy va Funktsional Xususiyatlari. Samarqand: Samarqand Tibbiyot Instituti Noshriyoti.
2. Komiljon Zufarov (2020) Tibbiyot o’quv qo’llanmasi ‘‘ Gistologiya’’kitobi
3. Javohirov, M. A., & Yusupov, A. (2018). Periodontologiya Asoslari. Toshkent: O’zbekiston Tibbiyot Noshriyoti.
4. Tursunov, A. (2019). Zamonaviy Periodontologiya. Toshkent: Ilm-fan Nashriyoti.
5. Carranza, F. A. (2014). Carranza’s Clinical Periodontology (12th ed.). Elsevier Health Sciences.
5. 2. Lindhe, J., Karring, T., & Lang, N. P. (2008). Clinical Periodontology and Implant Dentistry (5th ed.). Wiley-Blackwell.
6. Carranza’s Clinical Periodontology – 12-nashr, 2014 yil, Elsevier Health Sciences.
7. Clinical Periodontology and Implant Dentistr – 5-nashr, 2008 yil, Wiley-Blackwell.
8. Contemporary Periodontology – 4-nashr, 2017 yil, Mosby (Elsevier).